

**TRANSPORT VOSITALARINING TEZLIGI SABABLI SODIR ETILGAN YO'L-
TRANSPORT HODISALARI TAHLILI QILISH (ANDIJON SHAHRI MISOLIDA)**

Sotvoldiev Xasanboy Rasuljon o'g'li

Andijon mashinasozlik instituti stajyor o'qituvchisi.

Niyozov Davron Bobonazar o'g'li

Andijon mashinasozlik instituti talabasi.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada hozirgi kunda Andijon viloyati ko'chalarida transport vositalarining tezligi sababli sodir etilgan yo'l-transport hodisalari tahlili qilish bilan bog'liq bo'lgan yo'l-transport hodisalari, Andijon viloyati hududida 2022-2023 yillarning 11 oyi davomida YTH(Yo'l transport hodisa)lari to'g'risida tahlili keltirib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *Yo'l - transport hodisalarini turlari, yo'l harakati xavfsizligi, harakat miqdori, svetofor ob'ektlari, «yashil to'lqin», «yashil ko'cha», Piyodalar, transport vositasining tezligi.*

Аннотация: *В данной статье проведен анализ дорожно-транспортных происшествий с участием водителей на улицах Андижанской области, 1 ДТП (дорожно-транспортное происшествие) по Андижанской области за 11 месяцев 2022-2023 г.*

Ключевые слова: *Виды дорожно - транспортных происшествий, безопасность дорожного движения, объем движения, светофорные объекты, «Зеленая волна», «зеленая улица», пешеходы, скорость движения транспортного средства.*

Abstract: *This article cites an analysis of traffic accidents currently associated with the analysis of traffic accidents caused by the speed of vehicles on the streets of Andijan region, RTA(road traffic accidents)during the 11 months of 2022-2023 on the territory of Andijan region.*

Key words: *types of traffic accidents, traffic safety, amount of movement, traffic light objects, "Green Wave", "Green Street", pedestrians, vehicle speed.*

KIRISH

Bugungi kunda Respublikamizda, aholi sonining ortishi natijasida transport vositalarining miqdorini ortishi kuzatilmoqda, bu albatta shahrimiz ko'chalaridagi transport vositalarining harakatlanishini qiyinlashtirib yo'l-transport hodisalarining ko'payishiga olib kelmoqda. Albatta bu yo'l-transport hodisalariga turli omillar ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda, masalan: harakat miqdorining ortishi; transport vositalarining to'xtab turish joylarini to'g'ri tashkil qilinmaganligi; piyodalarning yo'llarda tartibsiz harakatlanishi; yo'l sharoitining talabga javob bermasligi va h.k. Jumladan shahrimizdagi magistral ko'chalar hisoblangan A.Navoiy va Mustaqillik ko'chalarida ham yo'l-transport hodisalarining miqdori yildan-yilga ortib bormoqda.(1-jadval)

(1-jadval)

№	Hududlar	Bolalar ishtirokida						O'sish/ kamayish			
		2023 y			2022 y						
		jami	xalok bo'lgan	jaroxa t	jami	xalok bo'lgan	jaroxa t	jami	xalok bo'lgan	jaroxa t	
1	Andijon sh.	33	5	28	43	2	41	10	3	-13	
2	Andijon t.	9	2	7	6	3	3	3	-1	4	
3	Oltinko'l t.	13	1	12	6	1	5	7	0	7	
4	Baliqchi t.	9	0	9	6	1	6	3	-1	3	
5	Ulug'nor t.	2	0	2	1	1	0	1	-1	2	
6	Izboskan t.	9	0	9	11	4	7	-2	-4	2	
7	Paxtaobod t.	11	2	9	8	0	8	3	2	1	
8	Asaka t.	20	1	19	21	2	19	-1	-1	0	
9	Bo'ston t.	2	0	2	7	2	5	-5	-2	-3	
10	Marhamat t.	8	3	5	14	1	13	-6	2	-8	
11	Shahrixon t.	7	1	6	9	2	7	-2	-1	-1	
12	Xonobod sh.	0	0	0	1	0	1	-1	0	-1	
13	Jalaquduq t.	10	2	8	7	0	7	3	2	1	
14	Qo'rg'ontepa t.	6	1	6	4	0	4	2	1	2	
15	Xo'jaobod t.	10	2	8	5	0	5	5	2	3	
16	Buloqboshi t.	6	0	6	6	0	6	0	0	0	
			20			19			1		
		155		136	155		136	0		0	

1-jadval.2022 yil va 2023 yilning 11 oyi davomida qayd etilgan bolalar ishtirokidagi YTHlar to'g'risida

Yo'l - transport hodisalarini turlari bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak birinchi navbatda piyodalarni urib ketish yuqori salmoqqa ega.


Keyingi o'rinlarda esa to'qnashuv va boshqa yo'l-transport hodisalari turadi.

Bu yo'l-transport xodisalarini foiz ko'rinishida izohlaydigan bo'lsak, 2005 yilda piyodalarni bosib (urib) ketish eng yuqori ko'rsatkichni egallaydi, ya'ni 64,2% ni, to'qnashuv 26,7% ni, boshqa (qolgan) yo'l-transport hodisalari 5,3% ni, velosipedchini bosib (urib) ketish 1,7% ni va to'siqlarga urilish 1,7% ni tashkil etgan. 2006 yilda piyodalarni bosib (urib) ketish 60,9% ni, to'qnashuv 29,6% ni boshqa (qolgan) yo'l-transport hodisalari 6,25% ni, velosipedchini bosib (urib) ketish 1,5% ni va to'siqlarga urilish 1,5% ni, tashkil etadi. 2007 yilda piyodalarni bosib (urib) ketish 63,7% ni,

to'qnashuv 17,5% ni, boshqa (qolgan) yo'l-transport hodisalari 5,4% ni, to'siqlarga urilish 4,3% ni tashkil etadi. 2008 yilda piyodalarni bosib (urib) ketish 68,3% ni, to'qnashuv 22,4% ni, boshqa (qolgan) yo'l-transport hodisalari 2% ni, to'siqlarga urilish 6,1% ni tashkil etadi. 2009 yil holatiga piyodalarni bosib (urib) ketish 64,5 % ni, to'qnashuv 25% ni, boshqa (qolgan) yo'l-transport hodisalari 2% ni, to'siqlarga urilish 6,25% ni, ag'darilib (to'ntarilib) ketish 2% ni tashkil etadi (1-rasm).

Ushbu rasmda Andijon shahrida sodir etilgan YTH larning turlari bo'yicha taqsimlanishi keltirilgan. Albatta bu keltirilgan statistic ma'lumotlardan ko'rinadiki asosiy ko'rsatkichlardan biri to'qnashuv va piyodalarni urib yuborish hodisasi hisoblanadi.

Yo'l harakatini tashkil etishda yo'l-transport hodisalarini tizimli tahlil qilish talab etiladi. Yo'l-transport hodisalari oqibatida kelib chiqadigan ko'plab sarflarni kamaytirishda mukammallashgan qaror qabul qilishga imkon beradi. Ushbu tahlillar har xil iqtisodiy sarflardan tejash va harakatini tashkil etishni yaxshilashning birinchi navbatdagi texnik-iqtisodiy asoslangan tadbirlarini aniqlash imkonini beradi [2].



1-rasm. Yo'l-transport xodisalarini foiz ko'rinishida.

Shahar ko'cha va yo'llarida harakat xavfsizligini oshirish bo'yicha shahar ko'cha-yo'l tarmog'ini boshqarishda samarali tadbirlar foydalanuvchilar uchun ko'proq qulayliklarni aks ettirishi lozim [3].

YTHdan keladigan yo'qotishlarni kamaytirishning bir necha usullari yaratilgan bo'lib, xalq xo'jaligida harakat xavfsizligini ta'minlashning samarali chora-tadbirlarini baholashning quyidagi usullari mavjud [4]:

a) ko'rilayotgan yo'lining bo'lagida har bir YTHdan keladigan yo'qotishlarni to'g'ridan-to'g'ri yig'indisiga asoslangan usul. Bunday hisoblashlarda yo'qotishlarni tashkil etish ko'rsatkichining o'rtacha narxidan foydalaniladi;

b) harakat xavfsizligini oshirish bo'yicha qandaydir tadbirlarni "oldingi va keyingi" usulida o'tkazish;

v) yakuniy halokatlilik koeffitsientidan foydalanishga asoslangan usul. Bu holatda bir YTHdan keladigan yo'qotishlarning o'rtacha ma'lumotlariga asoslanib umumiy yo'qotishlar (hisobotdan ajratilmagan holatda), yakuniy halokatlilik koeffitsienti hamda YTHlarning orasidagi bog'liqlik hisoblanadi.

Harakat xavfsizligini oshirish bo'yicha tavsiya etilgan tadbirlarda har xil kapital sarflar keltiriladi va YTHning ortishiga ta'sir darajasi aniqlanadi.

Katta shaharlarda ko'p yillardan buyon yo'nalishdagi jamoat transportlarini yo'l-tarmoq tizimidan samarali foydalanishini ta'minlash uchun har xil usullar muvaffaqiyatli qo'llanib kelinmoqda: avtobuslar uchun maxsus bo'laklar qurish, avtobuslar bo'laklari bilan bir vaqtda izlaridan foydalanish, chorrahalaridan jamoat transport vositalarini imtiyozli o'tkazish, svetofor orqali boshqarishda maxsus tizimlarni qo'llash va boshqalar [5].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Rahmatov, U. F. O. G. L., & Sotvoldiyev, X. R. O. G. L. (2022). KORXONADA AVTOMOBILLARGA TEXNIK XIZMAT KO'RSATISHNI TAKOMILLASHTIRISH. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(4), 62-68.

2. Utkirjon, R., Hasanboy, S., Sardor, I., & Sukhrobjon, P. (2022). DEVELOPMENT THE PUBLIC TRANSPORT PRIORITY WITH BUS RAPID TRASIT (BRT) ON INTERSECTIONS ROADS IN UZBEKISTAN. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(5), 298-301.

3. Rasuljon o'g'li, S. X. (2022). SERVIS XIZMAT KO'RSATISH STANSIYASLARIDA BAJARILADIGAN XIZMATLAR SIFATINI ANIQLASH USLIBINI ISHLAB CHIQISH. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(4), 264-269.

4. Rasuljon o'g'li, S. X., Farxod o'g, R. O. T., Sardor, I., Suxrobjon, P. L., & Elyorbek o'g'li, S. D. (2022). AVTOMOBILLARGA SERVIS XIZMAT KO'RSATISH STANSIYASLARIDA BAJARILADIGAN XIZMATLAR SIFATINI ANIQLASH USLIBINI ISHLAB CHIQISH VA XODIMLAR MALAKASINI OSHIRISH YO'LI BILAN AVTOSERVIS KORXONASINING RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASH. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(5), 312-315.

5. Rasuljon o'g'li, S. X., Farxod o'g, R. O. T., Sardor, I., Suxrobjon, P. L., & Elyorbek o'g'li, S. D. (2022). AVTOSERVIS KORXONADAGI TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH VA MIJOZLAR BILAN ISHLASHNI TAKOMILLASHTIRISH. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(5), 302-306.

6. Rasuljon o'g'li, S. X. (2023). AVTOKORXONALARDA TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH BO'LIMI FAOLIYATINING SIFATINI UMUMIY BAHOLASH VA TEXNIK TAYYORGARLIK KOEFFITSIENTINI QO'LLASH BILAN BIRGA, UNING SIFAT VA EKSPLUATATSIYA XARAJATLARI DARAJASINI HISOBLASH. Mexatronika va robototexnika: muammolar va rivojlantirish istiqbollari, 1(1), 338-342.

7. Raxmatov, O., & Sotvoldiyev, X. R. O. G. L. (2021). Avtotransport vositalariga mavsumiy servis xizmat ko'rsatish turlari va ularning xarakat xavfsizligiga ta'siri. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(10), 1147-1151.

8. Baynazarov, K., Turayev, S., Giyasidiniv, A., Ismailov, S., Maxammadjonov, N., & Sotvoldiyev, X. (2024). Calculation for variations in resistance force during trailer unloading device operation. In E3S Web of Conferences (Vol. 471, p. 04014). EDP Sciences.

9. Rasuljon o'g'li, S. X. (2021). AVTOTRANSPORT VOSITALARIGA MAVSUMIY SERVIS XIZMAT KO'RSATISH TURLARI VA ULARNING XARAKAT XAVFSIZLIGIGA TA'SIRI.

10. Raxmatov, U. F. O. G. L., Burxonov, S. U. B. O. G. L., & Sotvoldiyev, X. R. O. G. L. (2022). IXTISOSLASHTIRILGAN TRANSPORT VOSITALARIGA TEXNIK XIZMAT KO'RSATISHNI VAQTIDA AMALGA ISHIRISHNING EKSPLUATATSIYA SHAROITIDAGI SALMOG'I. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(4), 77-82.

11. Илхомов, С., & Пулатов, С. (2022). ОБСЛУЖИВАНИЕ СПЕЦИАЛЬНЫХ ТРАНСПОРТНЫХ СРЕДСТВ, ИСПОЛЬЗУЕМЫХ В ПРОИЗВОДСТВЕ, И ЕГО ДОПОЛНИТЕЛЬНЫЕ ВОЗДЕЙСТВИЯ. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(5), 293-297.